

**AMALIYOTCHI PSIXOLOG KADRLARNING UZLUKSIZ KASBIY
RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA RAQAMLI
TEXNOLOGIYALARING O'RNI**

Imonova Maftuna Baxtiyor qizi

TerDPI Psixologiya kafedrasi o'qituvchisi imonovamaftuna949@gmail.com

O'ralova Dinora Aliboy qizi

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi e-mail: Uralovadinara50@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimiz ta'lif tizimini rivojlantirishga qaratilgan raqamli texnologiyalarini qo'llash afzalliliklari va yo'nalishlari yoritib berilgan. Ta'lif tizimidagi psixologik xizmatning fenomen sifatidagi mohiyati tilga olingan. Shuningdek, O'zbekiston respublikasi umumiyligi o'rta ta'lif tizimda faoliyat ko'rsatayotgan maktab amaliyotchi psixologlarida o'tkazilgan aniqlovchi tadqiqot natijalari o'rganilib, tahlil natijalariga suyangan holda ta'lif tizimidagi psixologik xizmat faoliyatidagi muammolar tasniflangan.

Kalit so'zlar: Ta'lif tizimi, ta'lif sohasi, texnologiya, raqamli texnologiyalar, o'quv jarayoni, psixologik xizmat, fenomen, zarurat, psixologik xizmat konsepsiysi, psixologik xizmatning boshqaruvi modeli, so'rovnoma, respondent, monitoring.

Ta'lif tizimidagi psixologik xizmatning asosiy prinsipi gumanizm g'oyasiga asoslangan. Ta'lif tizimidagi psixologik xizmatning mavjud vaziyati tahlil qilinganida, psixologik xizmatning asosiy maqsadi maktab o'quvchilarining psixik va psixologik salomatligini saqlash degan xulosaga kelingan. Bunga qo'shimcha sifatida aytishimiz mumkinki, bu xizmatning asosiy maqsadlari sirasiga o'sib kelayotgan shaxsning jismoniy va ruhiy salomatligini ta'minlash, shaxs sifatida rivojlanishiga xizmat qilish va ta'lif-tarbiyaning bola rivojlanishiga ijobiy ta'sirini kuchaytirish hisoblanadi. Bugungi kunda ta'lif tizimini zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirishga muhim e'tibor qaratilmoqda. Ta'lif tizimi mamlakatni kelajagini belgilovchi omil sifatida bu borada yoshlarni ta'lif olishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan. Mamlakatimizda ta'lif tizimini keng taraqqiy qildirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy asoslari takomillashib, shu orqali ta'lif jarayonini barcha ishtirokchilarining huquqiy maqomi ham mustahkamlandi. Darhaqiqat, ta'lif va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarini taraqqiy ettirish asosiy ustuvor vazifa sifatida qaralib, ushbu eng ezgu maqsadlarga erishish va keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirishda "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lif-tarbiya tizimidan boshlanadi", g'oyasi muhim o'rinni egalladi. Chunki, ta'lif tizimini isloh qilish – mamlakat modernizatsiyasining o'zagi hisoblanadi. Ta'lif – ta'lif oluvchiga maxsus tayyorlangan mutaxassislar yordamida bilim berish va ulardagi ko'nikma

hamda malakalarni shakllantirishdagi ikki yoqlama (ya'ni, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati) jarayon bo'lib, u kishini shaxs sifatida hayotga va mehnatga ongli ravishda tayyorlash vositasidir. Ta'lrim sohasini tubdan takomillashtirishni bugun hayotning o'zi taqozo etmoqda. Chunki, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari har bir sohada keng joriy etilib, jamiyat hayotida transformatsiya jarayonlari jadallahashmoqda. Ta'lrim sohasida yangi fanlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalari ham yaratilmoqda. Ushbu texnologiya bilan birga zamonaviy ahamiyatga ega bo'lgan raqamli texnologiyalar ta'lrim tizimida keng qo'llanilmoqda. Raqamli texnologiyalarni qo'llash uchun ta'lrim resurslari mavjud bo'lishi lozim. Ya'ni, ta'lrim tizimida raqamli ta'lrim resurslarining bo'lishi ushbu texnologiyalarni amalga oshirishning muhim sharti bo'lib xizmat qiladi. Raqamli ta'lrim resurslari - o'quv jarayonini tashkil etish uchun zarur bo'lgan va raqamli shaklda taqdim etiladigan fotosuratlar, videofilmlar, modellar, rolli o'yinlar, kartografik materiallar, darslik mazmuniga muvofiq tanlangan, darsni rejalashtirish bilan bog'langan va zarur ko'rsatmalar bilan ta'minlangan resurslardir. Ushbu resurslar zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalarning amaliy natijasi sifatida kundalik hayotning ajralmas qismiga aylanib bormoqda va ta'lrim muassasalari tomonidan ular o'quv jarayoniga faol ravishda keng tatbiq etilmoqda. Uning qismi va asosi bo'lgan texnologiya o'quv jarayonining turli jihatlarida, ya'ni ma'muriy vazifalarni hal qilish bilan birga uy vazifalarini onlayn shaklda bajarishgacha qo'llanilmoqda. O'quv jarayoniga yangi axborot texnologiyalari, aloqa va axborot vositalarini joriy etish o'quv jarayonini faollashtirish va dars o'tish samaradorligi va tezligini oshirish talabalarning mustaqil va individual ishlari hajmini yanada oshirish imkonini beradi. Bugungi kunda o'quv jarayoni to'liq amalda bo'lishi uchun har bir o'qituvchi turli elektron ta'lrim resurslaridan foydalangan holda darsga tayyorlanib, uni samarali o'tkazishi lozim. Chunki, ulardan foydalanish darsni yanada jonli, qiziqarli, boy va samaraliroq qilib o'tishga imkon beradi. Turli fan darslarida aloqa va axborot vositalaridan foydalanish o'quvchi va talabalar faoliyatini diversifikatsiya qilish, ularning darsga bo'lgan e'tiborini faollashtirish va foydanuvchilarning ijodiy salohiyatini yanada oshirishga imkon beradi. Ushbu texnologiyalarga asoslangan diagramma, jadval va taqdimotlarni tayyorlash vaqtini tejash va materialni estetik jihatdan bezatishga imkon beradi. Hamda krossvord, rasm, chizma, jumboq, vazifa va testlardan foydalanish ularning darsga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi. Shular bilan bir qatorda har bir o'qituvchi ta'lrim jarayonida raqamli texnologiyalarga asoslangan innovatsion kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda yangi usulda dars mashg'ulotlarini olib boradi. Ushbu texnologiyalar ta'lrimning barcha bosqichlarida ishlataladi. Umuman olganda, ta'lrim tizimida raqamli ta'lrim texnologiyalardan foydalanish quyidagi yo'nalishlardan iborat bo'ladi: - vizual ma'lumotlar bilan ta'minlash; - interfaol

namoyish materiallarini yaratish; - kompyuter yordamida dars jarayonini boshqarish; - talabalarning bilim va ko‘nikmalarini nazorat qilish; - talabalarning mustaqil izlanishlari va ijodiy ishlarini kuzatish. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar ta’lim resurslarini yaratishga xizmat qiladi. Bular elektron o‘quv qo‘llanmalari, interaktiv to‘plamlar, lug‘atlar va ma’lumotnomalar shaklida o‘qituvchiga darsni qiziqarli olib borish va o‘quvchi va talabalarga materialni muvaffaqiyatlari o‘rganishga yordam beradi.

Mehnat bozorini zamonaviy ehtiyojlariga mos kadrlar bilan ta’minalash har bir davlat uchun muhim masala. Bu esa o‘z navbatida o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini qay darajada tashkil etilishiga bog‘liq. Davlat rahbarining “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni e’lon qilingan va u «Kasbga yo‘naltirish tizimi»ni joriy etishni ham nazarda tutadi. Tizim doirasida 7-sinf o‘quvchilari uchun har oyda bir marta «Kasblar olamiga sayohat» mavzusida maxsus kurslar olib borish, 8-sinf o‘quvchilari uchun har chorakda kamida bir marotaba «Mening kelajakdagi kasbim» mavzusida seminar-treninglar olib borish hamda o‘quvchilarni kelajakda egallamoqchi bo‘lgan kasblarga yo‘naltirish, 9-sinf o‘quvchilarining kasbiy moyilligi bo‘yicha o‘tkazilgan psixologik-pedagogik diagnostik metodika natijalari asosida kelgusida aniq ishchi kasblar bo‘yicha kasb-hunar mакtablarida ta’lim olishi mumkin bo‘lgan o‘quvchilar o‘rtasida kasbga yo‘naltirish ishlarini olib borish vazifasi topshirilgan. Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va pedagogik-psixologik Respublika tashxis markazi tomonidan maktablarning 7-sinfidan boshlab qiziqish hamda qobiliyatlarini aniqlash maqsadida zamonaviy psixodiagnostik uslublarni o‘tkazish va ularni hisobotini yurituvchi **“Kasbim kelajagim”** nomli yagona onlayn platforma – **profnavigator.uz** yaratildi. Ushbu platforma asosida 7-sinfdan boshlab o‘quvchilarning o‘z qiziqish va qobiliyatlarini aniqlashga imkonni beradi.

Bu platformadagi **“Testlar”** rukni orqali o‘quvchilar o‘zlarining qaysi kasbga moyilliklari va layoqatlari aniqlanadi, **“Kasblar olami”** rukni orqali kasblar to‘g‘risida rasm, matn (professiogramma, infografika) ko‘rinishida ma’lumot va axborotlar berib boriladi. **“Kasbni egallah”** ruknida kasbni qaerda o‘rganish bo‘yicha respublikamizdagи akademik litseylar, kasb-hunar maktablari, kollejlar, texnikumlar va oliy ta’lim muassasalari to‘g‘risidagi ro‘yxat hududlar kesimida shakllantirilgan. Hozirgi kunda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tizimidagi professional ta’lim muassasalari to‘g‘risida to‘liq ma’lumotlar berish bo‘yicha hamkorlik ishlari olib borilmoqda. Shu bilan bir qatorda **“Muvaffaqiyatlari insonlar”** ruknida **“Muvaffaqiyatlari insonlar tajribasi”** hamda **“Muvaffaqiyatga erishgan o‘quvchilar”** orqali hayotda o‘z o‘rnini va mavqeiga erishgan insonlar hayot

yo‘li to‘g‘risida videoroliklar berilgan. “Psixologik maslahat” ruknida esa mutaxassislar tomonidan o‘quvchilarni kasb tanlashda fiziologik holatlarni e’tiborga olish zarurligi to‘g‘risidagi tavsiyalar va maslahatlar berilgan.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini tashkil etish, o‘quvchilarda kasbiy bilimlarni va motivatsiyani, ijtimoiy hayotdagi kasbiy olamga moslashuv va jamoaviy hamkorlik ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadida “Kasblar oyligi” o‘tkazish tartibi ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

Xulosa qilib shuni aytishimiz joizki, kasbga yo‘naltirish tizimi shaxsga muayyan soha va unga doir zarur ko‘nikmalarni o‘rganishda yordam beruvchi maqsad, mohiyat, prinsip, uslub va vositalar birligidir. Bu vazifa barcha o‘quvtarbiya ishlari bilan bog‘liq holda olib boriladi. O‘quvchini u yoki bu kasbga maqsadli yo‘naltirishdan avval uning shaxsini o‘rganish lozim. Buning uchun uni kuzatish (bevosita hamda bilvosita), mакtabdagи, jamoat joylaridagi, oila va mehnatdagi amaliy harakatini tahlil qilish, so‘rovnoma o‘tkazish, suhbat, test, intervyu olish mumkin. O‘g‘il-qizlar kasblar to‘g‘risidagi ma’lumot, bilimlarni nafaqat maktabda, balki ommaviy axborot vositalari orqali, tanishlari, qarindoshlaridan ham bilib oladi. Oydin va ravon hayot yo‘li ochilishi uchun yoshlар ko‘p kuch-g‘ayrat sarflashi, eng asosiysi, ko‘ngliga yoqqan, jamiyatga zarur va foydali sohani tanlashi lozim. Shu bois, maktabni bitirayotgan yigit-qizlar qanday kasb egasi bo‘lish to‘g‘risida ko‘p o‘ylaydi. Mamlakatimizda esa turli kasblarni egallash uchun barcha sharoit yaratilgan. Faqat bu imkoniyatlardan oqilona foydalanish, hayotda qo‘llash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Дубровина И. В. Психологическая служба образования: научные основания, цели и средства //Психологическая наука и образование.– 1998. – Т. 3. – №. 2.
2. Jimerson S. R., Oakland T. D., Farrell P. T. (ed.). The handbook of international school psychology. – Sage, 2007.
3. Fagan T. K., Wise P. S. School psychology: Past, present, and future. – NASP Publications, 4340 East West Highway, Suite 402, Bethesda, MD 20814 2000.
4. Z.Nishanova. Psixologik xizmat. Toshkent 2007
5. Berdievich, IB, & Nazinovich, SDND (2021). Dars va uning tahlili ta’lim sifatini oshirish omili sifatida. *Yevropa olimlari jurnali*, 2 (1), 42-45.
6. Csanady, M., Sepp, R., Blazso, P., Polgar, N., Racz, P., Jebelovszki, E., ... & Forster, T. (2004). 22 Low prevalence of beta myosin heavy chain gene mutations in Hungarian patients with hypertrophic cardiomyopathy. *European Journal of Heart Failure Supplements*, 3, 2-2.
7. Haydarova, S., & Nurqulova, G. (2023). EMERGENCE OF AGGRESSION AND NEGATIVISM IN PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF

ADOLESCENT PERIOD. International Bulletin of Engineering and Technology, 3(10), 62-64.

8. qizi Imonova, MB (2023). MUSIQANING INSON HISSIYOTIGA TASIRI. National Scientific Research International Journal natijalar, 2 (3), 156-161.

9. Иманов, Б., & Имонова, М. (2021). Развитие творческих способностей учеников при выполнении проблемных экспериментов по физике с помощью инновационных технологий. Общество и инновации, 2(2), 222-227.

10. Imonova, M. B. (2023). Oila tinchligi-jamiyat faravonligi asosi. Finland academic research science publisher, 1148-1151.

11. Имонова, М., & Тожиева, Д. (2023). Роль сиблиングовых отношений в когнитивном развитии детей. *Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков*, 1(1), 447-453.

12. Имонова, М. (2023). Musiqiy tarbiya-qudratli quroldir yohud musiqiy tarbiyaning shaxs shakllanishiga tasiri. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 35-37.

13. Имонова, М., & Таджиева, Д. (2023). Boshlangich sinf oquvchilarida milliy tarbiyani pedagogik va psixologik rivojlanishi qonuniyatları. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 74-76.

14. Иманова, М. Б. (2021). ШАХС ХАРАКТЕРИ АКЦЕНТУАЦИЯСИ ВА ДЕСТРУКТИВ ХУЛҚ-АТВОР. Academic research in educational sciences, 2(11), 1399-1403.

15. Imanov, B. (2023). NEGATIVE FACTORS AFFECTING THE QUALITY OF EDUCATION AND WAYS TO ELIMINATE THEM. Science and innovation, 2(B3), 355-358.

16. Имонова, М. Б. (2023). ВАЖНОСТЬ СЕСТРОВЫХ ОТНОШЕНИЙ В ЛИЧНОМ РАЗВИТИИ. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2(22), 120-123.

17. Imonova, M. B. (2023). Causes of Suicide Tendency in Adolescents. Journal of Discoveries in Applied and Natural Science, 1(1), 62-67.

18. Иманов, Б., & Имонова, М. Б. К. (2021). ДАРС ТУЗИЛМАСИ ВА УНГА ТАЙЁРГАРЛИК. Academic research in educational sciences, 2(5), 1158-1162.

19. Имонова, М. Б. (2023). РОЛЬ ОТНОШЕНИЯ СИБЛИНГА В ПРОБУЖДЕНИИ МОТИВОВ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(10), 101-104.

20. qizi Imonova, M. B. (2023). MUSIQANING INSON HISSIYOTIGA TASIRI. Results of National Scientific Research International Journal, 2(3), 156-161.

21. Imanov, B. B. (2023). O'QUVCHILARNING TABIATDA SODIR BO'LAYOTGAN FIZIK JARAYONLARNI ANGLAB ETISHDA TAJRIBALARING O'RNI. Interpretation and researches, 2(1).

22. Imanov, B. (2023). NEGATIVE FACTORS AFFECTING THE QUALITY OF EDUCATION AND WAYS TO ELIMINATE THEM. *Science and innovation*, 2(B3), 355-358.
23. Imanov, B. (2023). MALAKALI MUTAXASSIS SIFATLI TA'LIM VOSITASI SIFATIDA. *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, (6), 855-859.
24. Imanov, B. B. (2021). Competences in the quality of education and their organization. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(5), 419-424.
25. Imanov, B. B. (2021). Lesson and its analysis as factor of increasing the quality of education. *European scholar Journal*. Available online at//www.scolarzest.com, 1.
26. Karimov, R. R., Imanov, B. B., Karimov, Y. Z., & Abulova, M. R. К изледованию иенусообразному рабочим фгеном mini-izmelchitelya для губых кормов. *Toshdtu news" magazine*, Tashkent, 123-126.
27. Mahmudov, YG, & Imanov, BB (2021). Dars sifati ko'rsatkichlari. Osiyo ko'p o'lchovli tadqiqot jurnali , 10 (10), 653-656.
28. Mahmudov, Y. G., & Imanov, B. B. (2021). Lesson quality indicators. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(10), 653-656.
29. Summers, D., Kushzhanov, N., Almurzayeva, B., Yesengulova, M., Abdirakhmanova, Y., Safarov, R., & Imanov, B. MORAL DILEMMAS IN DIGITAL & FOREIGN WORLD. *BULLETIN OF NATIONAL ACADEMY OF SCIENCES OF THE REPUBLIC OF KAZAKHSTAN ISSN 1991-3494 Volume 2, Number 372 (2018)*, 68–74.
30. www.uza.uz - O'zbekiston Milliy axborot agentligi rasmiy veb-sayti